Tasviriy san'at

7

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

Yangi nashr



Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 75(075.3)
KBK 85.14ya72
T 25

Tuzuvchilar:
**Asqarali Sulaymonov, Sakina Muhamedjanova,
Zilola Sulaymonova, Dilshodjon Xaytmetov**

Taqrizchilar:
Botir Baymetov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tasviriy san’at kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi.
Ruslan Xalilov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasviriy san’at kafedrasi mudiri, dotsent.
Barno Yunusova – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.
Saodat Mansurova – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 274-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.
Shoxista Tursunova – Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi.

Tasviriy san’at [Matn]: 7-sinf uchun darslik / A. Sulaymonov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 128 b.

ISBN 978-9943-8353-6-8

UO‘K 75(075.3)
KBK 85.14ya72

Shartli belgilar:



Amaliy ish



O‘tilgan mavzu yuzasidan nazorat savollari



Uyga vazifa



Mavzuga oid qiziqarli ma’lumotlar

*Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi
mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-8353-6-8

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1-CHORAK







1-mavzu. Tasviriy san'atda ramziy belgi va geraldika 7

2-mavzu. San'at festivali, sport musobaqasi logotipini ishlash 11

3-mavzu. Tasviriy san'atda oqim va yo'nalishlar. Impressionizm va postimpressionizm 15


4-mavzu. Puantilizm uslubida manzara ishlash 20

5-mavzu. Puantilizm uslubida natyurmort ishlash 25

Nazorat ishi. Puantilizm uslubida manzara (yoki natyurmort) ishlash 30

6-mavzu. Kubizm uslubida natyurmort ishlash 31

2-CHORAK



7-mavzu. Grafik dasturlar yordamida kitob muqovasi dizaynini ishlash 38

8-mavzu. Kitob illyustratsiyasi 42

Nazorat ishi. Adabiyot darslarida o'rganilgan mavzulardan biriga illyustratsiya ishlash 51

9-mavzu. Shriftli-grafik kompozitsiya 52

10-mavzu. Kollaj texnikasida tasvir ishlash 57

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



11-mavzu. Haykaltaroshlikda portret 65

12-mavzu. Haykaltaroshlik materiallaridan dekorativ buyumlar yasash 68

13-mavzu. Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykalcha yasash 72

14-mavzu. Haykaltaroshlikda dekorativ panno yasash. Relyef 76

Nazorat ishi. Plastilin yoki loydan ixtiyoriy mavzuda relyefsimon kompozitsiya yasash 80

15-mavzu. O‘zbekiston amaliy bezak san’atida ramziy shakllar 81

16-mavzu. Islimiy naqsh ishlash 86



17-mavzu. Dizayn san’ati 90

18-mavzu. Arxitekturada kompozitsiya. Interyer dizayni 94

19-mavzu. Arxitekturada kompozitsiya. Eksteryer dizayni 99

20-mavzu. Arxitektura muhitida graffiti kompozitsiyasi 105

Nazorat ishi. “Sport musobaqalari” mavzusida devoriy tasvir – graffiti uchun kompozitsiya ishlash 110

21-mavzu. “Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlash 111


22-mavzu. Fotografiyada kompozitsiya 120

KIRISH

Hurmatli o‘quvchi! Sizga taqdim etilayotgan ushbu yangi avlod darsligida tasviriy san’atning turlari, janrlari, oqim va yo‘nalishlari, ijodkor rassomlar, dizayn, kompozitsion faoliyat, kitobat san’ati haqidagi ma’lumotlar bilan tanishasiz. Tasviriy san’at darslarida olgan bilimlaringiz, o‘zlashtirgan amaliy kompetensiyalaringiz kasb tanlashingizda sizga yaqindan yordam beradi. Buning uchun darslikdagi mavzularni qunt bilan o‘zlashtirishingiz, amaliy topshiriqlarni bajarib, o‘z mahoratingizni oshirib borishingiz lozim bo‘ladi. Umid qilamizki, ushbu darslik ijodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, dizaynerlik, me’morlik kabi kasblar haqida tasavvur hosil qilishingiz uchun muhim manba vazifasini o‘taydi.



1-
CHORAK



1-mavzu

TASVIRIY SAN’ATDA RAMZIY BELGI VA GERALDIKA

Tasviriy san’atda ramziy belgilarni tasvirlash bilan bog‘liq faoliyat turi “geraldika” (nemischa “heraldik”, fransuzcha “heraldique”, yunoncha “heraldus”) deb ataladi. Turli firma, vazirlik, konsern, qo‘mita va tashkilotlarning emblemalari, davlatlarning gerblari tasviri ham geraldika namunasi hisoblanadi.

Dastlabki gerblar miloddan avvalgi uchinchi mingyillikda yuzaga kelgan. Gerblarda asosan hayvonlar va parrandalar tasviridan foydalanilgan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbida ham afsonaviy humo qushi tasvirlangan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi hamda O‘zbekiston Olimpiya qo‘mitasining emblemasi



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi emblemasi



3-rasm. Rossiya Federatsiyasining davlat gerbi



4-rasm. Qozog‘iston Respublikasining davlat gerbi



5-rasm. Finlandiyaning davlat gerbi

Geraldikaning muhim sohalaridan biri – ramziy belgilar, emblemalar ham tasviriy san’atning grafika turi namunalari hisoblanadi. Ayniqsa, jahonga mashhur konsernlar, avtomobil sanoati korxonalari o‘zlarining mahsulotlari uchun brend vazifasini o‘tovchi emblemalarga jiddiy e’tibor qaratganlar *(6-rasm).*



6-rasm. Jahonga mashhur avtokonsernlarning emblemalari



7-rasm. Ramziy ma’no kasb etuvchi emblemalar



8-rasm. Emblema ishlash bosqichlari

Maktab (sinf, firma) emblemasini ishlash.

1. “Geraldika” so‘zi qaysi tildan olingan va qanday ma’noni anglatadi?
2. Ramziy belgi va emblemalar qaysi sohalarda qo‘llangan?
3. Kimlarda va qaysi kasb egalarida shaxsiy gerblar bo‘lgan?

Mustaqil ravishda firma emblemasini ishlash.

- Davlat gerblarida burgut tasviridan eng ko‘p foydalanilgan.
- O‘zbekiston Davlat gerbini O‘zbekiston Badiiy akademiyasining akademigi Anvar Mamajonov ishlagan.
- Amir Temur gerbida uchta aylana tasvirlangan.
- Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Qirol Artur kabi mashhur tarixiy shaxslarning ham o‘z gerblari bo‘lgan.
- Qadimda davlat gerblaridan tashqari yer-mulkka egalikni, korporatsiyalar, dvoryan va burjua oilalarini bildiruvchi gerblar bo‘lgan.
- 1672- va 1705-yillarda Amsterdam shahrida “Ramzlar va tamg‘alar” nomli kitob chop etilib, unda 8000 dan ortiq geraldika namunalari keltirilgan. 1671-yilda esa Klod Fransua Monestruaning “Geraldika san’ati va gerblarning kelib chiqishi” nomli kitobi nashr qilingan. 1726-yilda Peterburg akademiyasida geraldika kafedrasi tashkil etilgan.

2-mavzu

SAN’AT FESTIVALI, SPORT MUSOBAQASI LOGOTIPINI ISHLASH

Logotip (nemischa “logotupe”, yunoncha “logos” – *so‘z*, “tupos” – *iz* ma’nolarini anglatadi) – tashkilotlar, tijorat korxonalari yoki jismoniy shaxslarning grafik belgisi yoki emblemasi. Logotip – kompaniya korporativ identifikatorining asosiy atributi. Logotip dizayni konsepsiya va g‘oyaning vizual ifodasi bo‘lib, sodda, ayni paytda mantiqiy-kompozitsion jihatdan mukammal grafik tasvir hisoblanadi. Shuning uchun logotip original, assotsiativ, ekspressiv, funksional bo‘lishi kerak.

Logotip belgi, ramz, qiziqarli shriftlardan tarkib topgan elementlarni birlashtirish vositasida yaratilishi ham mumkin. Masalan, yozuv belgiga aylanishi, shrift mavzuga oid biror grafik shakl bilan boyitilishi mumkin.

Logotip kompaniyani belgi va ramzlar orqali tanishtiradi. Undagi belgi vizual qabul qilish uchun qulay va tushunarli bo‘lishi kerak. Toshkentda o‘smirlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xalqaro qilichbozlik musobaqasi logotipi bunga misol bo‘ladi.

Vazifa Musobaqa hamda u o‘tkaziladigan joyni bitta logotipda ko‘rsatish. Logotip original hamda barchaga birdek tushunarli bo‘lishi kerak.


Yechim Logotipga asos sifatida yuqoriga ko‘tarilgan qilich tasviri hamda Toshkentning diqqatga sazovor joylaridan biri – Toshkent teleminorasi obrazlaridan foydalanilgan.



9-rasm. Qilichbozlik bo‘yicha xalqaro musobaqa emblemasi

AMALIY MASHG‘ULOT
“TURBOLOGO” ILOVASI YORDAMIDA TASVIRIY SAN’AT FESTIVALI LOGOTIPINI YARATISH


1 Ilova orqali (https://turbologo.ru/create-logo) logotip yaratishning birinchi bosqichida bo‘lajak tadbir nomi, slogani (shiori) hamda qaysi sohaga bag‘ishlangani haqidagi ma’lumotlar kiritiladi.






2 Keyingi sahifada logotip uchun rang tanlanadi.

3 Navbatdagi sahifada logotip uchun grafik tasvir tanlanadi. Buning uchun yaratilayotgan logotip qaysi sohaga taalluqli ekanligini ko‘rsatib o‘tish talab qilinadi. Taqdim etilgan variantlardan 5 tagachasini tanlash imkoniyati mavjud.



4 Taqdim etilgan variantlardan ma’quli tanlanadi.





5 Tanlangan variant skrinshot tarzida saqlab olinadi.






1. Logotip deganda nimani tushunasiz?
2. Logotipga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Logotipning vizual komponentlariga nimalar kiradi?

Logotip yaratish uchun mo‘ljallangan ilovalardan foydalangan holda korxona uchun logotip va reklama slogani yaratish.

3-mavzu

TASVIRIY SAN’ATDA OQIM VA YO‘NALISHLAR. IMPRESSIONIZM VA POSTIMPRESSIONIZM

Impressionizm (fransuzcha “impressionnisme” – *taassurot*) oqimi 19-asr oxiri va 20-asrning boshlarida Yevropada, asosan Fransiyada yuzaga kelgan. Impressionizm tasviriy san’atning yirik oqimlaridan biri bo‘lib, u an’anaviy dogmatik akademik tasviriy san’atga zid ravishda yuzaga kelgan.



1874-yil 15-aprelda Parijdagi qahvaxonalarning birida “xo‘rlanganlar” (rasmiy tan olinmagan rassomlarni shunday nomlashgan) asarlari ko‘rgazmasi ochilgan. Klod Oskar Monening ko‘rgazmadagi “Quyosh chiqishi oldidagi taassurot” nomli asari “taassurotchilar” atamasining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Dastlab bir guruh rassomlarning ijodini ta’riflash uchun ishlatilgan bu atama keyinchalik haykaltaroshlik, musiqa, adabiyot va san’atning boshqa turlariga nisbatan ham qo‘llana boshlagan. Impressionist rassomlarning bosh g‘oyasi toza ranglardan foydalanish bo‘lgan. Rassomlarni tabiatning tez o‘zgaruvchan holatlari – tong, peshin, oqshom, nam va quruq havo, bulutli va quyoshli kun ko‘rinishlari, shaharning jo‘shqin va gavjum lavhalari qiziqtirardi. Naturaning o‘zidan ochiq havoda (plenerda) rasm ishlash impressionistlarning asosiy ijodiy uslubiga aylangan.

Yevropa impressionizmining asoschilaridan biri Alfred Sisley (1839–1899) hayotiy taassurotlar asosida rangtasvir kartinalarini yaratish borasida yuksak mahorat sohibi bo‘lgan. Otasi uni iqtisodiy bilim olishi uchun Londonga o‘qishga jo‘natgan. Biroq Alfredni tasviriy san’at, rangtasvir qiziqtirgani uchun Sharl Gleyr ustaxonasida tasviriy san’at asoslarini o‘rgangan. Alfred shu yerda keyinchalik mashhur impressionist bo‘lib tanilgan Klod Mone va Ogyust Renuar bilan tanishgan.

1873-yilda Alfred Sisley rangtasvirchi impressionistlar jamiyatini tuzgan. U butun hayoti va ijodiy faoliyati davomida impressionizmga sodiq bo‘lib qolgan.

Impressionist rassomlar faqat spektrning yetti rangi (qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havorang, to‘q ko‘k, binafsharang)dan foydalanganlar. Impressionistlar ranglarni qorishtirish vositasida qo‘shimcha hamda murakkab ranglarni hosil qilish va ulardan kartina yaratishni sun’iy holat sifatida baholaganlar.




10-rasm. **Kamil Pissarro.** Janna Pissarro bog‘da




11-rasm. **Klod Mone.** Nilufarlar

Impressionizm oqimining mashhur rassomlaridan biri Ogyust Renuar turli materiallarda jozibali kartinalar ishlagan. “Majnuntol va qayiqdagi odamlar” (12-rasm) kartinasida rassomning rangtasvirchi sifatidagi mahorati namoyon bo‘lgan. Bir qarashda oddiy qishloq ko‘rinishi rassom tomonidan tasvirlangan detallar bilan o‘zgacha mazmun kasb etgan. Asarning o‘rta planida tasvirlangan daryo suvi hayot o‘tkinchi ekaniga ishora. Qayiqdagi odamlar esa o‘tib borayotgan hayotning oddiy yo‘lovchilari sifatida talqin qilingan.

Impressionizmdan keyin tasviriy san’atning postimpressionizm oqimi yuzaga keldi. Bu oqim vakillari o‘z asarlarini realistik tasviriy



12-rasm. **Ogyust Renuar.** Majnuntol va qayiqdagi odamlar



13-rasm. **Ogyust Renuar.** Aktrisa portreti

san’at qonuniyatlari asosida yaratsalarda, asosiy e’tiborni asar kompozitsiyasida ramziylik va falsafiy mazmunni aks ettirishga qaratganlar. Keyinchalik tasviriy san’atda puantilizm, neoimpressionizm, fovizm, kubizm kabi oqim va yo‘nalishlar yuzaga kelgan.

Impressionizm oqimi Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlari, jumladan, o‘zbek tasviriy san’atiga ham ta’sir o‘tkazdi. Xususan, Lev Bure, Oganes Tatevosyan, Pavel Benkov, Zinaida Kovalevskaya, Vladimir Burmakin, Yuriy Taldikin, Anvar Mirsoatov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Shuhrat Abdurashidov, Yanis Salpinkidi, Abdumannon Yunusov, Dilorom Mamedova kabi o‘zbekistonlik rassomlar ijodida impressionizm elementlarini ko‘rishimiz mumkin.



14-rasm. **Alfred Sisley.** Sen-Jermenda bahor

Impressionizm uslubida ishlangan asardan nusxa ko‘chirish.

1. Impressionizm oqimi qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. “Impressionizm” atamasi dastlab qaysi rassomning asariga nisbatan ishlatilgan?
3. Impressionist rassomlardan kimlarni bilasiz?
4. Tasviriy san’atning qanday oqim va yo‘nalishlarini bilasiz?
5. Impressionist rassomlar o‘z asarlarida qanday manzaralarni tasvirlaganlar?


Darslikdagi impressionizmga oid illyustratsiyalarni tahlil qiling hamda o‘z taassurotlaringiz asosida mustaqil ish tayyorlang.

1. 19-asr oxirigacha Parijda “Salon” deb atalgan an’anaviy ko‘rgazma o‘tkazib kelingan.
2. Impressionistlar asarlarini Pol Dyural-Ryul ismli zaxiradagi dengiz ofitseri 20 frankdan sotib olgan. Keyinchalik bu asarlarning har birini 100 baravar qimmatga sotgan.
3. Impressionistlarning birinchi ko‘rgazmasiga kirish narxi 1 frank bo‘lgan.
4. Kartina savdosi bilan shug‘ullanuvchilarni marshanlar deb atashgan.

4-mavzu

PUANTILIZM USLUBIDA MANZARA ISHLASH

Puantilizm (fransuzcha “pointillisme”, “point” – nuqta) tasviriy san’atning mustaqil oqimi sifatida 19-asr oxirida Fransiyada paydo bo‘lgan. Bu usulda toza ranglarni nuqta yoki to‘rtburchak shaklida ishlatish orqali tasvir hosil qilinadi. Pol Sinyak, Jorj Syora, Anri Edmon Kros kabi fransuz rassomlari puantilizm uslubida ijod qilgan dastlabki rassomlar hisoblanadi. O‘zbekistonlik rassomlardan Xalq rassomi Anvar Mirsoatov, Zuhriddin Islomshikov, Dilyus Mirsalimovlar puantilizm uslubida bir qancha asarlar ishlashgan.



15-rasm. Puantilizm uslubida ishlangan manzara

Puantilizm uslubida ishlangan rasmda *(15-rasm)* rassom to‘rtburchak shakldagi rang surtmalari vositasida tog‘li qishloq manzarasini tasvirlagan. Manzara tasvirida rassom ranglarni yonma-yon va ustma-ust qo‘yishda kontrast ranglardan foydalangan.



16-rasm. Puantilizm uslubida ishlangan marinistik janrdagi manzara

Ikkinchi illyustratsiyada *(16-rasm)* issiq va sovuq ranglar kontrastini ko‘rish mumkin. Bunda rassom old va orqa planda issiq ranglardan, o‘rta planda esa sovuq ranglardan foydalangan.






17-rasm. **Eduard Mane.** Rassomning bog‘i

Uchinchi illyustratsiyada ham *(17-rasm)* issiq va sovuq ranglar kontrastini ko‘rish mumkin.


Quyida puantilizm uslubida manzara ishlash bosqichlari tasvirlangan.

ASQARALI SULAYMONOV

PUANTILIZM USLUBIDA MANZARA ISHLASH BOSQICHLARI



1



2



3



Amaliy ishni bajarishning birinchi bosqichida puantilizm uslubida chiziladigan rasmning ko‘rinishi belgilab olinadi va qalamda yengil yordamchi chiziqlar bilan manzara tasvirlab olinadi. Keyingi bosqichlarda ranglarni bir-biriga yaqin tuslarda surtib, tasvirning rangli ko‘rinishi hosil qilib boriladi. Dastlabki bosqichlarda manzaraga yengil tarzda och ranglardan tagzamin hosil qilib olish ham mumkin. Biroq bu rang manzara puantilizm uslubida ishlanganini bildirish uchun to‘sqinlik qilmasligi kerak. Bu jarayonda yuqoridagi illyustratsiyada tasvirlanganidek, och yuzalarga to‘q ranglar, to‘q yuzaga och ranglar surtish tavsiya etiladi. Manzaradagi elementlarga ularning uzoq-yaqinligiga ko‘ra rang tanlash kerak. Shu tariqa tasvirda havo perspektivasi ifodalanadi.

1. “Puantilizm” atamasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Impessionizm usulida manzara ishlagan chet ellik va o‘zbekistonlik qaysi rassomlarni bilasiz?

Puantilizm uslubida manzara kompozitsiyasini ishlash.

5-mavzu


PUANTILIZM USLUBIDA NATYURMORT ISHLASH

Puantilizm uslubida natyurmort ishlash manzara ishlashdan biroz qiyinroq. Chunki manzarada perspektiva qonuniyatlariga asosan, detallar uzoqlashgani sari kichrayib, ko‘rinishining aniqligi kamayib boradi. Ranglar ham uzoqlashgan sari xiralashib, umumiy havorang tusga aylanib boradi. Natyurmortda esa perspektiva va ranglarning holatlari u qadar o‘zgarmaydi.


Puantilizm uslubida ishlangan quyidagi rasmni diqqat bilan kuzating *(18-rasm)*. Bunda dastlab tasvir yuzasiga to‘qroq tusdagi rang berib olingan. Shundan so‘ng yumaloq shakldagi rang surtmalari berilgan. Bu usulda to‘q tusdagi ranglar ustidan och rangdagi bo‘yoqlar surtish tartibi qo‘llangan. Akvarel bo‘yog‘i shaffof bo‘lgani uchun ustama-ust berilganda ranglar to‘qlashib boradi. Shuning uchun puantilizm uslubida natyurmort ishlashda guash bo‘yog‘idan foydalanish kerak.

Natyurmortda och ranglar oxirgi qatlam sifatida berilgan. Ular ikkinchi planda bo‘lgani uchun shunday usul qo‘llangan.

Puantilizm uslubida natyurmort ishlashda dastlab birinchi qatlam sifatida och sidirg‘a rang berib olish mumkin. Ishning keyingi bosqichlarida har bir buyum va mevalarning rangiga mos ranglar yonma-yon surtilib, bosqichma-bosqich to‘qlashtirib boriladi. Ishning bu bosqichida natyurmort detallaridagi yorug‘-soya munosabatlariga alohida e’tibor qaratish zarur.




18-rasm. Guash bo‘yog‘i bilan puantilizm uslubida ishlangan natyurmort



19-rasm. Akvarel bo‘yog‘ida puantilizm uslubida ishlangan natyurmort


Quyida berilgan natyurmortni puantilizm uslubida ishlash.




20-rasm. O‘quv natyurmorti

ASQARALI SULAYMONOV


PUANTILIZM USLUBIDA NATYURMORT ISHLASH BOSQICHLARI




1



2



3




4

1. Puantilizm uslubida tasvir ishlashda qanday bo‘yoqlardan foydalaniladi?
2. Akvarel yoki guash bo‘yog‘ida puantilizm uslubida rasm ishlash nimasi bilan farqlanadi?
3. Puantilizm uslubida natyurmort ishlashda buyumlarning hajmini ifodalashda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

Mustaqil ravishda uy-ro‘zg‘or buyumlaridan iborat sodda natyurmortni puantilizm uslubida ishlash.

NAZORAT ISHI
PUANTILIZM USLUBIDA MANZARA YOKI NATYURMORT ISHLASH



21-rasm. Puantilizm uslubida ishlangan manzara


6-mavzu

KUBIZM USLUBIDA NATYURMORT ISHLASH

Kubizm (fransuzcha “kubisme” so‘zidan olingan) uslubi tasvirlanayotgan obyekt, buyum haqida kengroq tasavvur hosil qilish uchun o‘ylab topilgan. Unda rassom butun tasvirni geometrik shakllarga “bo‘laklash” orqali buyum haqidagi tasavvurni kengaytirishga intiladi. Bu uslub 20-asr boshlarida Fransiyada yuzaga kelgan. Kubizm uslubida ijod qilgan dastlabki rassomlar sifatida J. Brok, P. Pikasso, F. Lete, R. Beloni tilga olinadi.



22-rasm. Kubizm uslubida ishlangan o‘quv natyurmorti




23-rasm. Kubizm uslubida ishlangan natyurmort. Variant



24-rasm. Kubizm uslubida ishlangan murakkab ko‘rinishdagi dekorativ natyurmort

Kubizm uslubi tasviriy san’atning alohida yo‘nalishi sifatida shakllanishida fransuz rassomi Pol Sezanning ijodi alohida o‘rin tutadi.




Fransuz impressionizmining yorqin vakillaridan biri Pol Sezann 1839-yil 19-yanvarda tug‘ilgan. U ta’lim olgan kollejda tasviriy san’at majburiy fan bo‘lsa-da, bu soha-da aytarli yutuqlarga erishmagan. Rassomlikka qiziqishi shakllanishida Veroneze, Tintoretto, Delakrua, Domye kabi impressionist rassomlar, ayniqsa, Kamil Pissarro bilan tanishishi hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Kubizm uslubida nartyurmort tasvirini geometrik shakllarga bo‘lib olishda turli usullar – gorizontal va vertikal, diagonal chiziqlar o‘tkazish, aylanalar chizish orqali har xil shakllar hosil qilish mumkin. Muhimi, har bir geometrik shakl buyumning shakli, yorug‘ va soya qismlarini ifodalash uchun mos bo‘lishi kerak.


Kubizm uslubida natyurmort ishlashning yana bir xususiyati unda dekorativ elementlardan ham foydalanishdir.

Kubizm uslubida natyur-mort ishlashda buyumlarning shakliga e’tibor bergan holda turli yo‘nalishdagi chiziqlar yordamida geometrik shakl-lar hosil qilish, ularga kontrast ranglar berish kabilardan foy-dalanish mumkin.




KOMPYUTER GRAFIKASI YORDAMIDA KUBIZM USLUBIDA NATYURMORT ISHLASH BOSQICHLARI


1




2




3




4



5



6



- 1-variant. Berilgan natyurmortdagi buyumlarni geometrik shakllarga ajratish va kubizm uslubida tasvirlash.
- 2-variant. Natyurmortni kompyuter grafikasi yordamida kubizm uslubida tasvirlash.

1. “Kubizm” atamasining lug‘aviy ma’nosi nima?
2. Tasviriy san’atning kubizm yo‘nalishi qachon va qayerda vujudga kelgan?
3. Kubizm uslubida dastlabki tasviriy san’at asarlarini yaratgan rassomlardan kimlarni bilasiz?

Mustaqil ravishda kubizm uslubida natyurmort ishlash.

- O‘quvchilik yillarida Pol Sezanning matematika, lotin hamda yunon tillarini o‘rganishga iqtidori bo‘lgan. Tabiatan ijodkor Sezann fransuz tilida she’rlar yozgan.
- Sezann faqat 3 xil: ko‘k, yashil va malla (oxra) ranglarni oq rang bilan aralashtirib, 800 dan ortiq rangtasvir asarlarini yaratgan.
- Sezann akvarelda ham turkum asarlar ishlagan.

2-
CHORAK


MINORA
MEN DUNYONI NIMA QILDIM O'ZING YO'QLIGINGNI
O'ZIM XOHLAGAN
MONIM YO'LG'IZIM SEN TAYIN QILGAN
YASHNAM DEYMI O'ZING MENING
SEN MASHHUR BSAN XALQDA TUMOR BALKDA
NAYO IYSAN SHOH YONIDA
YETAKLASHIB
QO'YIN BO'LAB

7-mavzu

GRAFIK DASTURLAR YORDAMIDA KITOB MUQOVASI DIZAYNINI ISHLASH

Zamonaviy kitob grafikasiga xos xususiyatlardan biri tasvirni grafik dasturlar yordamida ishlashdir. Shunday dasturlardan biri CorelDRAW vektor grafik muharriri hisoblanadi. Bu dasturda ko‘plab effektlar to‘plami mavjud. Dastur interfeysining qulayligi tufayli qisqa vaqtda uning asosiy imkoniyatlari haqida tushuncha hosil qilish mumkin.

Vektorli tasvir deb faqat yaqqol ajratilgan nuqta (tugun)lar va bu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlardan tashkil topgan tasvirga aytiladi. Vektor grafikasida tasvir *vektor* deb nomlanuvchi chiziqlar asosida qurilib, ularga turli parametrlar – rang, chiziq qalinligi va joylashuvi kabi xususiyatlarni berish imkoniyati kitob bezovchi rassom uchun qulaylik yaratadi. Vektorli tasvir o‘lchami o‘zgartirilganda ham o‘z sifatini saqlab qoladi hamda alohida obyektlarni tahrirlash imkonini beradi.


CorelDRAW dasturining ustunliklaridan biri uning qulay va oson sozlanuvchi interfeysidir. Dastur oynasi ko‘pgina yordamchi elementlardan tashkil topgan.

Dasturni kompyuterga o‘rnatganda quyidagi belgi ko‘rinadi. Mazkur belgi ustiga sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali dasturga kiriladi.



CorelDRAW dasturi belgisi

Kitob grafikasi yo‘nalishida kitob muqovasi eskizini ishlashda “Bosh menyu”, “Standart panel”, “Xususiyatlar paneli”, “Asboblar paneli”, “Ranglar palitrasi” kabi elementlardan foydalaniladi.




CorelDRAW dasturi oynasining umumiy ko‘rinishi

AMALIY ISH


CorelDRAW dasturida 7-sinf “Tasviriy san’at” darsligi muqovasining dizaynini loyihalash.

Asboblar panelidagi to‘rtburchak shaklidan foydalanib ixtiyoriy to‘rtburchak chiziladi. Xususiyatlar panelidagi o‘lcham qo‘yish funksiyasiga kirib, kerakli o‘lcham (418x300 mm) kiritiladi.




Muqovaning umumiy o‘lchamini belgilash

Ushbu amalni qaytarib, 378x260 mm o‘lcham belgilanadi. Hosil bo‘lgan birinchi to‘rtburchakni sichqoncha yordamida belgilab, klaviaturadan “Shift” tugmasini bosgan holda ikkinchi to‘rtburchak chizig‘i ustiga sichqonchani olib borib, chap tugmasi bosiladi. Natijada ikkala shakl belgilanadi. So‘ng klaviaturadan “C” va “E” (“Center” – markaz) harflari ketma-ket bosilsa, katta o‘lchamdagi to‘rtburchak markaziga kichik o‘lchamdagi to‘rtburchak avtomatik joylashadi.




Tasvir hosil qilinadigan yuzani belgilash




Kitob muqovasining old va orqa tomonlarini belgilash

Katta o‘lchamdagi to‘rtburchak kitob muqovasi hisoblanadi. Uning markazidan vertikal chiziq o‘tkazib, to‘rtburchak teng ikkiga ajratiladi. Markazdan ikki tomonga 15 cm dan teng masofa qoldiriladi. To‘rtburchakning o‘ng tomoni kitob muqovasining old qismi, chap tomoni esa orqa qismi bo‘ladi. Kichik to‘rtburchak kitob muqovasidagi yozuvlar va rasmlarni chiroyli joylashtirish uchun chegara vazifasini bajaradi.

Keyingi bosqichlarda kitob muqovasiga rang berish, rasm qo‘yish, turli effektlarni qo‘llash, yozuv shriftlari bilan ishlash jarayonlari bajariladi.



Muqova uchun rang va shrift tanlash



Kitob muqovasining yakuniy varianti

1. CorelDraw qanday dastur?
2. Vektor nima?
3. Vektorli grafika bugungi kunda qaysi sohalarda keng qo‘llanmoqda?
4. CorelDraw dasturida kitob muqovasi qanday ketma-ketlikda ishlanadi?


CorelDraw dasturida kitob muqovasi variantini ishlash.

8-mavzu

KITOB ILLYUSTRATSIYASI


Illyustratsiya – lotincha “illustratio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yoritish”, “ko‘rgazmali tasvirlash” ma’nosini anglatadi. Illyustratsiyalar dastlab qo‘lyozma kitoblarda Yunoniston, Rim, keyinchalik Qadimgi Misr, Xitoy va O‘rta Osiyoda yaratilgan.


O‘rta Osiyoda yaratilgan qo‘lyozma asarlardagi illyustratsiyalar miniatyura shaklida ishlangan.



25-rasm. Abdurahmon Jomiy asariga ishlangan miniatyura-illyustratsiya

Kitob nashr etish texnologiyalari, grafika san’ati rivoj topib, illyustratsiya yaratishning xilma-xil usul va texnikalari ixtiro qilindi. Kitob bezovchi rassomlar illyustratsiya ishlashning gravyura, linogravyura, ksilografiya, ofort kabi texnikalaridan foydalanganlar.






26–27-rasmlar.
Qutlug‘ Basharov.
Nodira lirikasiga ishlangan illyustratsiyalar



Illyustrator rassom sifatidagi badiiy-tasviriy mahorati “Rasmlarda Vatan tarixi” kitobiga ishlagan rasmlarida yaqqol namoyon bo‘lgan Abduqahhor Mahkamov 1947-yilda Urganch shahrida tug‘ilgan. P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik kolleji hamda hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o‘qigan.

1982–1992-yillarda Abduqahhor Mahkamov Cho‘lpon nomidagi nashriyotda bosh rassom sifatida faoliyat ko‘rsatib, respublikamizda bolalar uchun badiiy bezatilgan kitoblar nashr qilish ishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Rassomning ko‘pgina asarlari O‘zbekiston davlat san’at muzeyida, AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlar san’at ixlosmandlarining shaxsiy kolleksiyalarida saqlanadi. Abduqahhor Mahkamovning “Vatan tarixi”, “Buyuk ipak yo‘li” umumiy nomlari ostidagi turkum grafik asarlari O‘zbekiston tasviriy san’atining nodir namunalari sifatida e’tirof etiladi. “Jahon xalqlari ertaklari” turkumidagi illyustratsiyalarida rassom o‘zining ijodiy mahoratini ko‘rsatgan. Sharq miniatyura san’ati an’analarini zamonaviy talqinda davom ettirgan rassomlardan biri sifatida ko‘plab adabiy manbalarga, ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklariga turkum illyustratsiyalar ishlagan. Uning kitob bezovchi rassom sifatidagi mahorati “Rasmlarda tarixiy lavhalar” kitobiga ishlangan illyustratsiyalarda yaqqol namoyon bo‘lgan.



28-rasm. **Abduqahhor Mahkamov.** “Ziyod botir” ertagiga ishlangan illyustratsiya

Kitoblarga ishlanadigan illyustratsiyalar o‘z vazifasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Eng ko‘p illyustratsiyalar adabiy asarlarga ishlanadi. Bu turdagi illyustratsiyalar ham ikki xil bo‘ladi: tarixiy va zamonaviy manbalarga ishlangan illyustratsiyalar.




29-rasm. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asariga ishlangan illyustratsiya



30-rasm. Bobur Hirotda Sulton Husayn xonadonida.
“Boburnoma”ga ishlangan illyustratsiya

Tarixiy illyustratsiyalarga Alisher Navoiyning “Xamsa”siga *(29-rasm),* Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asariga ishlangan miniatyura illyustratsiyalarni *(30-rasm)* misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlarda aniq tarixiy voqelik tasvirlangan. Zamonaviy rassomlar tomonidan tarixiy mavzularga ishlangan illyustratsiyalar ham tarixiy voqeliklar talqiniga oid bo‘ladi. Kitob bezovchi rassom Abduqahhor Mahkamovning “Rasmlarda tarixiy lavhalar” kitobiga ishlagan tasvirlari *(31-rasm)* shunday ishlar sirasiga kiradi.



31-rasm. **Abduqahhor Mahkamov.** “Rasmlarda tarixiy lavhalar” nomli kitobga ishlangan illyustratsiyalar




Darslik, izohli lug‘at va turli ensiklopediyalarga ishlangan tasvirlar ham kitob illyustratsiyalari hisoblanadi. Ular asosan ilmiy va texnikaviy mazmun kasb etadi.

32-rasm. **Konstantin Cheprakov.** Fuzuliy lirikasiga ishlangan illyustratsiya


ZILOLA SULAYMONOVA

ADABIY ASARGA ILLYUSTRATSIYA ISHLASH BOSQICHLARI


1




2




3




4



5



6



Eskizlar yordamida badiiy asar syujeti asosida illyustratsiya ishlash.

1. “Illyustratsiya” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. O‘zbekistonlik kitob bezovchi rassomlardan kimlarni bilasiz?
3. Kitob illyustratsiyalari qanday turlarga bo‘linadi?

Mustaqil ravishda syujeti tanish bo‘lgan adabiy asarga illyustratsiya ishlash.

NAZORAT ISHI
ADABIYOT DARSLARIDA O‘RGANILGAN MAVZULARDAN BIRIGA ILLYUSTRATSIYA ISHLASH



33-rasm. Tabriz miniatyura maktabiga oid illyustratsiya

9-mavzu

SHRIFTLI-GRAFIK KOMPOZITSIYA

Shrift (nemischa “schreiben” – “yozmoq”) – yagona stilistik va kompozitsion tuzilishga ega, ma’lum o‘lcham va naqshli belgilar to‘plamini tashkil etuvchi harf va belgilarning grafik chizmasi.


Shrift kompozitsiyasi shriftli-grafik asarning kompozitsion qurilishi yoki tuzilishi bo‘lib, uning barcha asosiy qismlarining qiziqarli joylashishi va o‘zaro bog‘lanishidir. Shriftli kompozitsiyaning elementlari: alohida shrift belgilari (harflar, raqamlar, ularning elementlari, tinish belgilari), so‘zlar, so‘z birikmalari, matnning alohida satrlari va matn bloklari.

Shrift asosida asosiy kompozitsiya qonuniyatlari (ritm, kontrast, bo‘shliq), shuningdek, estetik tamoyillar (harf obrazi, uslub) o‘rganiladi. Shriftli kompozitsiyalar ham bir nechta turlarga bo‘linadi. Bular:


1. Harflar yordamida so‘z ma’nosini anglatuvchi obraz yaratish.
2. Matn va tasvir uyg‘unligidagi kalligramma yaratish.
3. Shriftli illyustratsiya yaratish.



Harflar yordamida so‘z ma’nosini anglatuvchi obraz yaratishda so‘zning ma’nosi, funksional vazifasi, xususiyati va belgisini tahlil qilish natijasida uning grafik kompozitsiyasi quriladi.




34–35-rasmlar.
Shriftli kompozitsiya variantlari




36-rasm. Shriftlardan kompozitsiya mazmuniga mos tarzda foydalanish

Matn va tasvir uyg‘unligidagi grafik tasvir *kalligramma* deb ataladi. Kalligrammada matnni chizilgan rasmning konturiga moslashtirish bilan illyustratsiya yaratiladi.

Tasvir matnning harakatiga bo‘ysunsa, uning ritmiga mos ravishda harakatlansa, tasviriy-shriftli kompozitsiyaning umumiy yaxlitligi ta’minlanadi.



37-rasm. Shriftlardan kompozitsiya mazmuniga mos tarzda foydalanish



38-rasm. Shriftli matndan mavzuli kompozitsiya yaratish variantlari

Kalligrammalar kompozitsiya jihatidan murakkab bo‘lishi mumkin. Kompozitsion mukammal kalligrammalarga misol sifatida islom xattotlik san’ati namunalarini keltirish mumkin (39-rasm).



39-rasm. Kalligrafik kompozitsiya

Shriftli illyustratsiya yaratishning eng qiziqarli jihatlaridan biri – harf shaklidan foydalangan holda tasvir yaratish imkoniyatining mavjudligi. Biror-bir so‘z yoki harflardan turli obrazlar, logotip yaratish, rasmlar chizish mumkin *(34–42-rasmlar).*



40-rasm. Shriftli dinamik kompozitsiya



41-rasm. Shriftli dinamik kompozitsiya. Variant



42-rasm. Real tasvirdan shriftli-grafik tasvir hosil qilish

1. Shrift deganda nimani tushunasiz?
2. Shriftli kompozitsiya nima?
3. Shriftli kompozitsiyaning qanday turlarini bilasiz?
4. “Kalligramma” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

1. Harflardan so‘z ma’nosini anglatuvchi obraz yaratish.
2. Turli o‘lcham va turli uslubdagi shriftlardan me’moriy obida obrazini yaratish.

10-mavzu

KOLLAJ TEXNIKASIDA TASVIR ISHLASH

Kollaj (fransuzcha “kollaj” – “yelimlash”) – o‘xshash bo‘lmagan turli materiallarni (fotosurat, karton, tabiiy material va shu kabilar) bir kompozitsiyada birlashtirishga imkon beruvchi tasviriy san’at texnikasi. Kollaj texnikasi yordamida yaratilgan asarlarda rang va tekstura jihatdan farq qiluvchi materiallarni yuzaga yopishtirish orqali tasvir hosil qilinadi.

Kollaj texnikasining bir nechta turlari mavjud.

1. Dekupaj (fransuzcha *découper* – “kesmoq”) – predmetlar yuzasiga rasm tushirilgan turli xil qog‘ozlarni yopishtirib, ustidan loklash orqali bezatish texnikasi.



43-rasm. Dekupaj texnikasida tasvir hosil qilish

2. Skrapbuking (inglizcha *scrap* – “bo‘lak”, *book* – “kitob” ma’nolarini anglatadi) – oilaviy fotoalbomlarni, kitob hamda tabriknomalarni mato, qog‘oz, biser yoki boshqa tabiiy materiallar (quritilgan gul, barglar) bilan bezatish texnikasi.









44-rasm. Skrapbuking texnikasida tasvir hosil qilish

3. Kvilling (inglizcha “quilling” – qush patlari) amaliy-dekorativ san’at turi hisoblanib, unda buralgan qog‘oz tasmalaridan hajmli yoki tekislikdagi kompozitsiya yaratiladi.



45-rasm. Kvilling texnikasida tasvir hosil qilish

4. Fotografiyalardan kollaj yasash – birgina kartina yuzasida bir qancha fototasvirlarni birlashtirish orqali bir butun kompozitsiya yaratishdir. Bunda rasmlar kartina yuzasida tartibsiz tarzda yoki aksincha, ma'lum bir tartibda joylashishi mumkin. Fotografiyalardan tashqari kollajning bu turida turli xil yozuvlar, illyustratsiyalar, dekoratsiyali bezaklardan foydalanish ham mumkin.



46-rasm. Fotokollaj




47-rasm. Kollaj texnikasida ishlangan kompozitsiya

KOLLAJ TEXNIKASIDA PORTRET ISHLASH BOSQICHLARI

1



2



3




4



1. Kollaj yaratishning birinchi bosqichida eskiz tayyorlab olinadi. Eskizda tasvir g‘oyasi, obrazning mayda detallarigacha qog‘ozga tushirib olinadi.
2. Yaratayotgan obrazingizning rangli yechimini umumiy holatda bo‘yab chiqing. Masalan, odamning yuz va kafti sariq rangda bo‘lishi mumkin. Kiyimi va boshqa bezaklar rangini ham belgilab oling.
3. Keraksiz jurnal va gazeta sahifalaridan kompozitsiyangiz uchun zarur ranglardagi bo‘laklar kesib olinadi va eskizning kerakli qismlariga yopishtirib chiqiladi. Shu tarzda davom etib, kompozitsiya tugallanadi.

1. Kollaj qanday san’at turi, uning qaysi turlarini bilasiz?
2. “Dekupaj” so‘zi nimani anglatadi?
3. Skrapbuking san’atining ijodiy imkoniyatlari qanday?
4. Kvilling san’atida nimalardan asosiy ijodiy material sifatida foydalaniladi?

Kollaj texnikasida ijod qilgan birinchi ijodkor – nemis rassomi Kurt Shvitters (1887–1948).



48-rasm. Kollaj texnikasida ishlangan abstrakt kompozitsiya

Yuqorida keltirilgan texnikani qo‘llagan holda erkin mavzuda kollaj kompozitsiyasini yaratish.



49-rasm. Kollaj texnikasida ishlangan tasvir parchasi

Skrapbuking texnikasi 20-asrda paydo bo‘lgan. Bu davrda odamlar she’riy kitoblar, kundalik daftarlarini turli xil gazeta qirqimlari, esdalik predmetlari bilan bezatganlar.

Kollaj texnikasida kompozitsiya ishlash.


3-
CHORAK



11-mavzu

HAYKALTAROSHLIKDA PORTRET

Portret haykaltaroshlik san’atining asosiy janrlaridan biridir. Portretga qo‘yiladigan birinchi talab – o‘xshashlik: tasvirlanayotgan inson va haykalning o‘zaro o‘xshashligini ifodalashdir. Lekin o‘xshashlik tashqi sifatlar bilan kifoyalanmaydi. Haykaltarosh tasvirlanayotgan insonning ruhiy holatini (qayg‘u, quvonch, tushkunlik va boshqa holatlarning ifodasi), xarakterli xususiyatlarini ochib berishi kerak.



50-rasm. **Maksim Makarevich.** Alisher Navoiy byusti



51-rasm. **Jasvant Annazarov.** Furqat byusti



52-rasm. **Dmitriy Ryabichev.** Jasorat monumenti

Portret ishlashda boshning yuz qismi bo‘yindan oldinga chiqariladi. Boshning umumiy holati topilgach, yuzning mayda detallari ishlanadi.



53-rasm. Haykaltaroshlik darslarida foydalaniladigan ish qurollari

HISSIY HOLAT TASVIRLANGAN HAYKAL YASASH BOSQICHLARI



4



5



Keyingi bosqichda quloqlar va labga qo‘shimcha hajm beriladi. Buning uchun boshqa plastilin bo‘laklaridan foydalaniladi. Alohida plastilin bo‘laklaridan nafis burama sochlar tasvirlanadi. Ko‘z qismini ishlashda kichik o‘lchamdagi plastilindan sharlar yasab, ko‘z olmasi ichiga joylashtiriladi, stek yordamida yuqori va pastki qovoqlarga ishlov beriladi. So‘nggi bosqichda portretning qoshi hamda soch buramalari ishlanadi.

Plastilin yoki loydan hissiyot ifodalangan portret ishlash.

1. Tasviriy san’atning haykaltaroshlik turida qanday janrlar bor?
2. Haykaltaroshlikda portret nima va u qanday turlarga bo‘linadi?
3. Portret ishlashda qanday talablarga amal qilinadi?
4. Byust deganda nimani tushunasiz?

Plastilin yoki loydan gorelyef usulida odam portretining bo‘rtma tasvirini ishlash.

Dunyoning turli mamlakatlarida o‘zbek allomalarining haykallari o‘rnatilgan. Tokio (Yaponiya), Minsk (Belarus) va Moskva (Rossiya Federatsiyasi) shaharlarida Alisher Navoiy, Qohirada (Misr) Ahmad al-Farg‘oniy, Rigada (Latviya) Mirzo Ulug‘bek, Kortreyk (Belgiya) va Ryuey-Malmezon (Fransiya) shaharlarida ibn Sino haykallari bor.

12-mavzu

HAYKALTAROSHLIK MATERIALLARIDAN DEKORATIV BUYUMLAR YASASH

Haykaltaroshlikda o‘quv vazifalari yumshoq materiallardan foydalanib bajariladi. Haykaltaroshlikning yumshoq materiallari – sovuq farfor, sovuq chinnidan foydalanish bir qator qulayliklarga ega. Plastik material sifatida ulardan toza ranglar hosil qilish imkoniyati mavjud.

Plastik material quyidagi tartibda tayyorlanadi.

3 oshqoshiq PVA № 801 markali yelim, 2 oshqoshiq pista yog‘i, 1 oshqoshiq glitserin, 1/3 choyqoshiq limon kislotasi va 4,5 oshqoshiq jo‘xori kraxmali aralashtiriladi. Natijada xamirga o‘xshash plastik massa hosil bo‘ladi. Bu massaga xuddi xamir kabi ishlov berib, pishitiladi. Keyingi bosqichda yasaladigan buyumning hajmi, bo‘laklarining katta-kichikligiga qarab mayda zuvalachalarga ajratiladi, guash bo‘yog‘i qo‘shish orqali rangli bo‘lakchalar hosil qilinadi. Bu qorishmani sellofanga o‘rab saqlansa, ancha vaqtgacha o‘zining plastik xususiyatini yo‘qotmaydi.



54-rasm.
Plastik materialdan tayyorlangan dekorativ buyum

Haykaltaroshlikda dekorativ buyumlar yasashda kulolchilik loyidan ham foydalaniladi. Kulolchilik loyi o‘zining plastik xususiyatlariga ko‘ra dekorativ buyumlar yasash uchun qulay material hisoblanadi. Quyida kulolchilik loyidan dekorativ buyum – qalamdon yasash bosqichlari ko‘rsatilgan.

JO‘RABEK ISHMATOV

KULOLCHILIK LOYIDAN DEKORATIV SHAKLDAGI QALAMDON YASASH BOSQICHLARI



1



2



3

4





5

6



Birinchi bosqichda yuqoridagi rasmlarda ko‘rsatilgandek kompozitsiyaning shakllariga mos ravishda bo‘lakchalar tayyorlab olinadi. So‘ng ularni ko‘rinishiga mos shakllarga keltirib, bir-biriga yopishtirish usulida qalamdonning yaxlit kompozitsiyasi shakllantirib olinadi. Natijada quyidagi rasmda keltirilgandek dekorativ haykalcha hosil bo‘ladi *(55-rasm)*.



55-rasm. Dekorativ shakldagi buyum – qalamdon kompozitsiyasining yakunlangan varianti

1. Sovuq farfor yoki chinni xamir uchun plastik material tayyorlashda qanday mahsulotlar kerak bo‘ladi?
2. Plastik material bo‘lakchalariga rang berish uchun qanday bo‘yoqdan foydalaniladi?
3. Plastik materiallardan har xil shakllar hosil qilish uchun qanday usullar qo‘llanadi?

Mustaqil ravishda chinni xamir tayyorlab, ixtiyoriy buyum, hayvon yoki parranda haykalchasini ishlash.


Dekorativ buyumlar yasash borasida o‘ziga xos maktab yaratgan o‘zbekistonlik usta Hamrobibi Rahimovaning asarlari Luvr (Fransiya), Jahon keramika muzeyi (Italiya), Ermitaj (Rossiya) kabi nufuzli muzeylarda saqlanadi.

13-mavzu LANDSHAFT DIZAYNI UCHUN FUNKSIONAL-DEKORATIV HAYKAL ISHLASH

Funksional haykal biror-bir muhitni estetik jihatdan bezashi, muayyan funksional vazifa bajarishi kerak. Funksional-dekorativ haykallar deganda turli xil obrazlardagi yoritqichlar, mebellar, favvoralar, soyabonlar, bolalar maydonchasidagi sirpanchiq kabilar tushuniladi.







56–58-rasmlar. Yoritqich shaklidagi dekorativ haykaltaroshlik namunalari

Bog‘ landshafti yoki interyer uchun dekorativ-funksional haykalni soddalashtirilgan inson qiyofasidagi guldon shaklida yasash mumkin. Buning uchun qog‘oz, qalam, haykaltaroshlikda ishlatiladigan loy yoki plastilin kerak bo‘ladi.

Dastlab ishning eskizi chizib olinadi. Bunda, birinchi navbatda, yasaladigan haykal qanday funksiya bajarishi va qayerda joylashishi aniqlab olinadi.

Keyingi bosqichda haykalning badiiy yechimi qog‘ozga tushiriladi. Haykalning shakli, plastik yechimi, funksiyasi, landshaftdagi o‘rni aniqlab olingach, yaratilgan eskiz asosida haykalcha namunasi ishlanadi.

Haykalchani yasash jarayonida texnik xavfsizlik, gigiyena qoidalari hamda materialdan tejamkorlik bilan foydalanishga e’tibor qaratish zarur.








59-rasm. Guldon shaklidagi dekorativ haykaltaroshlik namunalari



60-rasm.
Erkin Nizomov.
Landshaft dizayni uchun dekorativ yoritqichlar





61-rasm.
Jo‘rabek Ishmatov.
Landshaft dizayni uchun dekorativ yoritqichlar



62-rasm. **Jo‘rabek Ishmatov.** Landshaft dizayni uchun funksional-dekorativ haykalchalar

1. Funksional haykaltaroshlik haykaltaroshlikning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Funksional haykaltaroshlik namunalari qanday vazifalarni bajaradi?

Funksional haykaltaroshlik namunasi eskizini ishlash hamda shu eskiz asosida amaliy ish bajarish.

14-mavzu

HAYKALTAROSHLIKDA DEKORATIV PANNO YASASH. RELYEF

Relyef (fransuzcha “relief” – “tekislik yuzasidagi bo‘rtma tasvir”) haykaltaroshlik turi bo‘lib, tekislikka bo‘rttirib yoki aksincha, o‘yib ishlanadi. Relyef uch turga bo‘linadi: chuqurlashtirilgan (kontrrelyef), barelyef va gorelyef.

Chuqurlashtirilgan relyef tekislik sathiga nisbatan ichkariga qarab o‘yilgan holda ishlanadi. Relyefning bu turi Qadimgi Misrda keng qo‘llangan. Kontrrelyef bilan amaliy san’at asarlari va ulkan ehromlar devori yuzalari, ustunlari bezatilgan *(63-rasm).*

Barelyef (fransuzcha “bas-relief” – “past bo‘rtma”) namunalarini Toshkentdagi “G‘alaba bog‘i”, “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida, Toshkent metropoliteni bekatlari interyerlarida ko‘rish mumkin. Barelyef kompozitsiyalarida tasvir tekislikdan bo‘rtgan holda tasvirlansa-da, umumiy tarzda tekislik yuzasidan tashqariga ajralmagan holda ifodalanadi *(64-rasm)*.

Gorelyef (fransuzcha “haut-relief” – “baland bo‘rtma”)da tasvirlanayotgan obrazlar umumiy hajmining yarmidan ko‘prog‘i bo‘rtgan holda ifodalanadi *(65-rasm).*



63-rasm. Chuqurlashtirilgan relyef (kontrrelyef). Qadimgi Misr



64-rasm. Barelyef. “Yangi O‘zbekiston” bog‘i. Toshkent




65-rasm. Gorelyef. “Yangi O‘zbekiston” bog‘i. Toshkent

Barelyef ko‘rinishida dekorativ panno yasashdan oldin kompozitsiya g‘oyasini qog‘ozga tushirib olish kerak *(67-rasm).* Keyingi bosqichda kompozitsiya ishlash uchun plastilindan 10x15 cm kattalikdagi tekis plast yasab, uning ustiga qog‘ozdagi kompozitsiyani joylashtirib, qalam bilan tasvir hosil qilinadi. Plastilin yuzasiga tushgan tasvir ustidan hajm beriladi *(68-rasm).*

Dekorativ pannoni yasash jarayonida tasvir ustiga loyni bosqichma-bosqich qo‘yish orqali hajm to‘ldiriladi. Ushbu jarayonda tasvirdagi shaklning aniqligiga ahamiyat qaratish lozim. Ish jarayonida bo‘rtmaning alohida qismlari qalinligi va plastikasiga e’tibor berish kerak.



66-rasm. Relyefsimon dekorativ panno variantlari



67-rasm. Barelyef shaklidagi dekorativ panno eskizi



68-rasm. Barelyef shaklidagi dekorativ panno

Yuqorida keltirilgan bo‘rtma dekorativ haykaltaroshlik namunasini yasash tartibi asosida tovus dekorativ pannosini ishlash.

1. “Relyef” atamasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Relyef qanday turlarga bo‘linadi?
3. Barelyef va gorelyefning farqini izohlang.
4. Kontrrelyef boshqa turdagi relyeflardan qaysi jihati bilan farqlanadi?

Barelyef usulida mustaqil kompozitsiya ishlash.

NAZORAT ISHI
PLASTILIN YOKI LOYDAN IXTIYORIY MAVZUDA RELYEFSIMON KOMPOZITSIYA YASASH




69-rasm. Relyefsimon kompozitsiya

15-mavzu

O‘ZBEKISTONNING AMALIY BEZAK SAN’ATIDA RAMZIY SHAKLLAR

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida amaliy bezak san’ati madaniy merosimizning muhim qismlaridan biri sifatida e’zozlab kelinadi. O‘zbek amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri – ibtidoiy jamoa tuzimi davriga to‘g‘ri keladi.

Naqqoshlik har bir o‘lkaning o‘ziga xos muhiti, geografik o‘rni, xususiyatlariga ko‘ra rivoj topadi. O‘zbek xalq naqshlarida anor, bodom, gullar, qalampir kabilarning ramziy tasvirlari naqsh elementlari sifatida qo‘llangan.



70-rasm. Gruzin xalq naqshlari



71-rasm. Arman xalq naqshlari




72-rasm. Qirg‘iz xalq naqshlari








73-rasm. Qozoq xalq naqshlari

Amaliy bezak san’atida ramz (arabchadan olingan, “ishora qilmoq” ma’nosini anglatadi) tabiatni, voqelikni, hayotdagi quvonch va tashvishlarni, do‘st va dushmanlarni, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir.

O‘zbek milliy naqshlarida quyidagi ramzlar mavjud.

RAMZ (nomi)	SHAKLI	MA’NOSI
Nuqta	.	Hayotning boshlanishi, Tangrining yagonaligi, hayotning tugaganligi va boshqa ramzlar
To‘g‘ri chiziq	———	Hayotdagi to‘g‘ri yo‘l, hayotning ravonligi
Teng yonli uch-burchak		Yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq, olam

Romb		Ishonch, ayol, ona yer, serfarzandlik
Aylana		Olam, baxt, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish, mukammallik, abadiylik (ya'ni olam doimiydir, lekin inson umri o'tkinchi)
Yarim aylana		Baxt
Kvadrat		Dunyoning, olamning cheksizligi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug'lik, mustahkamlik, borliq yer-suv, olov va havodan iborat ekanligi, mukammallik, tenglik, go'zallik
Kurtak		To'qchilik, bahor, uyg'onish, Navro'z
Bog'lam		Baxt bog'lanishi
Barg		Bahorgi uyg'onish, Navro'z

Qalampir		Har xil yomonliklar va yomon ko‘zlardan asrash
Novda		Boylik, farovonlik
Shoxbarg		Bahorgi uyg‘onish

Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g‘uncha, kabutar, tovuslarning tuzilishidan turli naqsh kompozitsiyasini ishlash uchun turli elementlarni stilizatsiyalashtirib olganlar.

Naqqoshlik, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, kashtachilik, zardo‘zlik va amaliy san’atning boshqa turlarida qo‘llanadigan elementlar naqsh ishlashning alifbosi hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan ramziy naqsh elementlarini chizish va ularning ma’nosini yod olish.

1. Milliy naqsh elementlari qanday ma’nolarni anglatadi?
2. Qaysi ramziy shakl ishonch, ona yer, serfarzandlik ma’nolarini bildiradi?
3. Amaliy san’atning rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qilgan?
4. O‘zbek milliy naqsh elementlari sifatida qanday ramziy shakllardan foydalaniladi?
5. “Ramz” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

Jadvalda keltirilgan ramziy elementlardan foydalanib naqsh kompozitsiyasi tuzish.


16-mavzu ISLIMIY NAQSH ISHLASH

Islimiy – o‘simliksimon shakldagi takrorlanuvchi taqsimlardan tuzilgan naqsh turi. Naqsh asosini tanob, band, barg, butalar tashkil etadi. Islimiy naqshning xillari ko‘p, u qaysi shakl bilan to‘ldirilsa, naqsh shu shakl nomi bilan ataladi: islimiy barg, islimiy bargak, islimiy bofta, islimiy gul, islimiy zanjira, islimiy madohil, islimiy mehrob va shu kabi yuzdan ortiq sodda va murakkab turlari mavjud.

Tanob – arabchadan olingan bo‘lib, *chilvir, arqon* degan ma’noni anglatadi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negiz va naqshga shakl beruvchi chiziq “tanob” deyiladi. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o‘tuvchi rangli naqshlarda ishlatilsa, albatta, ikkalasi ikki xil rangga bo‘yaladi. Tanoblar bir-birini kesib o‘tmay, aksincha parallel bo‘lsa, bunday naqsh “qo‘sh tanobli islimiy” deb ataladi. Agar tugallangan mustaqil kompozitsiya bo‘lsa, “qo‘sh tanobli namoyon” deyiladi.


Islimiy naqsh chizish uning elementlarini o‘rganishdan boshlanadi.

1-bosqich. Islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash uchun qalamda qog‘oz varag‘i (rasm daftari)ga 10x20 cm li o‘lcham chizib olinadi *(74-rasm).*



74-rasm. Islimiy naqsh ishlanadigan yuzani belgilash tartibi


2-bosqich. Chizib olingan o‘lcham markazidan boshlab, birinchi navbatda tanob tortib chiziladi. Tanobni bir-biri bilan bog‘lash maqsadida shukufta (bog‘lam) chiziladi. Keyingi bosqichda novdalar chizib olinadi, so‘ng ularning yo‘nalishiga moslab gullar joylab chiqiladi *(75-rasm).*



75-rasm. Naqsh kompozitsiyasini qalamda chizish bosqichi

3-bosqich. Chizilgan islimiy naqsh kompozitsiyasiga rang beriladi. Bunda oldin bo‘yaladigan yuzalarni guruhlarga ajratib olish kerak.

Birinchi navbatda naqshning asosi bo‘yab olinadi. Keyin ikkinchi darajali qismlari bosqichma-bosqich bo‘yaladi *(76-rasm).*



76-rasm. Islimiy naqshni bo‘yash bosqichlari

4-bosqich. Bu bosqichda pardozlash ishlari amalga oshiriladi. Keyin gul va barglarga siyohqalam tortiladi. So‘ng ularga targ‘il tortiladi hamda oq bandlar (tanoblar) ustidan oq guash surtib chiqiladi *(77-rasm).*



77-rasm. Islimiy naqshning yakuniy bosqichi

Mustaqil ravishda islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash.

1. Naqshning bu turi nima uchun “islimiy” deyiladi?
2. Shakliga ko‘ra islimiy naqshlarning qanday turlari bor?
3. “Tanob” so‘zi nimani anglatadi?
4. Mola qalamlar nima uchun ishlatiladi?
5. 1-, 2-raqamli mo‘yqalamlar naqsh kompozitsiyasining qaysi jarayonlarida va nima uchun ishlatiladi?

Ixtiyoriy o‘lchamda murakkab bo‘lmagan islimiy naqsh kompozitsiyasini ishlash.

- O‘zbekiston xalq ustasi, mashhur kulol va olim Muhiddin Rahimov o‘zbek milliy naqshlari turlarini tasniflab chiqqan. Uning bu asari YUNESKO tomonidan ingliz tilida nashr qilingan.
- Bu kitob dunyoning Metropoliten (Nyu York), Luvr (Parij), Britaniya muzeyi (London) kabi muzeylarida saqlanadi.

4- CHORAK



17-mavzu DIZAYN SAN'ATI

Dizayn (inglizcha “design” – “loyiha”, “chizma”, “rasm”) – buyum va mahsulotlarning estetik va funksional vazifalarini ifodalash maqsadida yaratilgan loyiha. Dizayn iste'mol buyumlari, avtomobillar, maishiy texnika, libos, reklama, jamoat va turarjoy binolari interyer va eksteryeri, mebel jihozlari, veb dizayni kabi yo‘nalishlarda yaratiladi.

O‘zbekistonda dizayn san'ati rivojlanib, sanoat dizayni, libos dizayni, reklama dizayni, arxitektura, avtomobil va boshqa sohalar dizaynida faoliyat yuritayotgan o‘zbek dizaynerlarining mahsulotlari dunyo bozoriga chiqdi va taniqli brendlarga aylandi.

Tasviriy san'at bilan jiddiy shug‘ullanib, dizayner bo‘lish uchun dizayn turlari va yo‘nalishlari borasida yetarli bilimga ega bo‘lish talab etiladi.




78-rasm. Libos dizayni

Libos dizayni – inson uchun qulay bo‘lgan va uni bezaydigan kiyimlarni loyihalashga qaratilgan dizayn turi. Ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchilar “modelyer-dizayner” deb ataladi.



79-rasm. Reklama dizayni

Reklama dizaynidan ommaviy axborot vositalari orqali mahsulotni (biznesni) tavsiya etish uchun foydalaniladi.





80-rasm. Arxitektura dizayni

Arxitektura dizayni – inson uchun estetik va qulay muhit yaratishga qaratilgan faoliyat turi.



81-rasm. Interyer dizayni

Har qanday dizayn variantini yaratishda g‘oya qog‘ozga eskiz ko‘rinishida tushirib olinadi. Tasavvurdagi dizayn qanday shakl va ranglarda yaratilishini eskizda aniqlashtirib olinadi.



82-rasm. Libos dizaynini tasvirlash bosqichlari

Turli buyumlarning dizayn eskizini chizish.

1. “Dizayn” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Dizayn san’ati qachon paydo bo‘lgan va eng yirik dizayn maktablaridan qaysilarini bilasiz?
3. Dizayn san’ati turlariga misol keltiring.
4. Arxitektura dizayni, reklama dizayni va libos dizayni deganda nimani tushunasiz?

Dizayn turlaridan birida eskiz ishlang.

- O‘zbekistondagi bir qator oliy ta’lim muassasalarida dizayner mutaxassislar tayyorlanadi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik institutida interyer va libos dizayni, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida libos dizayni, Toshkent arxitektura-qurilish institutida interyer va landshaft dizayni, Toshkent davlat texnika universitetida sanoat dizayni bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.
- Dizayn 20-asr boshlarida yuzaga kelib, 1930-yillarda maxsus faoliyat turi sifatida G‘arbiy Yevropa va AQSHda shakllandi. Ilk dizayn maktablari sifatida Bauxaus (Germaniya), VXUTEMAS (Rossiya) kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

18-mavzu ARXITEKTURADA KOMPOZITSIYA. INTERYER DIZAYNI

Interyer arxitektura va dizayn sintezi bo‘lib, xona muhiti hamda undagi buyum va jihozlarning o‘zaro mutanosibligi dizayn loyihasi asosida rejalashtiriladi. Binoning arxitekturaviy yechimi, u qaysi uslubda qurilganligi interyer dizaynini belgilab beradi. Masalan, biror-bir arxitekturaviy uslubda qurilgan bino uchun o‘sha bino uslubiga mos interyer yaratish, jihozlash talab etiladi. Buni biz *haytek* va *klassik* uslubda qurilgan bino va uning interyerlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Interyer qanday maqsadda yaratilgani, vazifasi, unda joylashgan jihoz va buyumlar asosida xona dizayni ishlanadi. Shuning uchun ofis va jamoat tashkilotlari, teatr va kinoteatrlar, vokzal va shifoxonalar, ta’lim muassasalari, turarjoylar interyeri bir-biridan farq qiladi.



83-rasm. Klassik uslubdagi uy eksteryeri



84-rasm. Klassik uslubdagi uy interyeri




85-rasm. Haytek uslubidagi uy eksteryeri




86-rasm. Haytek uslubidagi uy interyeri

SAKINA MUHAMEDJANOVA


XONA INTERYERI DIZAYNINI CHIZISH BOSQICHLARI








4





5

6



Mavzuning amaliy mashg‘uloti sifatida xona interyeri dizaynini yaratishda qog‘oz markaziga to‘g‘ri to‘rtburchak chizib olinadi. Shakl ichidan bir nuqtani belgilab, to‘g‘ri to‘rtburchakning barcha burchaklarini belgilangan nuqta bilan tutashtiruvchi chiziq o‘tkazilgach, ular xona interyeri devorlari perspektivasini hosil qiladi. Keyingi bosqichda markazdagi nuqtadan xona devorlari tomon yordamchi chiziqlarni o‘tkazib, ularga vertikal ravishda xona jihozlari balandligi belgilab olinadi.

Diagonal chiziqlar yordamida predmetlarning perspektiv qisqarishi tasvirlanadi.

Barcha jihozlarni joylashtirib bo‘lgach, detallar bo‘yaladi.

1. Interyer deganda nimani tushunasiz?
2. Bino interyeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
3. Interyer uslubi deganda nimani tushunasiz?


O‘z xonangizni kompozitsion jihatdan qayta qurish va jihozlash bo‘yicha interyer dizayni eskizini ishlang.

19-mavzu

ARXITEKTURADA KOMPOZITSIYA. EKSTERYER DIZAYNI

Tasviriy san’atda eksteryer deganda me’moriy inshootlar va ularning tashqi ko‘rinishi tushuniladi.

Eksteryer dizaynini yaratishning birinchi bosqichida chiziladigan bino nima uchun mo‘ljallanganini aniqlab olish kerak: turarjoy binosi, ko‘p qavatli savdo markazi, sport majmuasi va h.k. Arxitektura inshooti eksteryeri dizaynini yaratishda ushbu bino joylashgan muhit, u yerdagi boshqa arxitektura obyektlarini inobatga olish talab etiladi. Masalan, tarixiy shaharlar muhitida zamonaviy dizayn yechimidagi binoni loyihalash muhitning o‘ziga xosligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yoki aksincha, zamonaviy shaharlar muhitida o‘rta asrlarga oid dizayn yechimidagi arxitektura inshootlarini joylashtirish muhitning zamonaviyligiga birmuncha mos kelmaydi. Zamonaviy shahar muhiti uchun moslashtirilgan *haytek* uslubidagi dizayn yechimiga ega masjidlar bunga misoldir *(87-rasm).*



87-rasm. Haytek uslubidagi dizayn yechimiga ega Aymani Qodirova nomidagi masjid. Chechenistan




88-rasm. An’anaviy arxitektura yechimiga ega “Minor” masjidi. Toshkent

Arxitekturadagi badiiy uslub va yo‘nalishlar biror-bir tarixiy davrga oid bo‘ladi. Bu talablar mamlakat an’analari, tabiiy iqlim sharoiti, siyosiy-iqtisodiy sharoitlar asosida yuzaga keladi. Masalan, Qadimgi Yunon va Rim arxitekturasi badiiy an’analari elementlarini klassik uslubdagi zamonaviy arxitektura inshootlari eksteryerlarida uchratish mumkin *(89-rasm).*



89-rasm. Toshkentdagi “Oq saroy” turarjoy binosi




90-rasm. Qadimgi Rim arxitekturasi

SAKINA MUHAMEDJANOVA

BINO EKSTERYERI DIZAYNINI CHIZISH BOSQICHLARI

1



2





3

4





5



Bino eksteryerini chizish uchun dastlab osmon va yer tutashgan chiziq (gorizont chizig‘i) chizib olinadi. Keyingi bosqichda uyni qaysi holatda tasvirlashni belgilab olish kerak. Tasvirlanayotgan bino eksteryeri to‘g‘ridan yoki yarim yonbosh rakursda bo‘lishi mumkin. Yarim yonbosh shaklda tasvirlashda ikki tomonlama perspektiva qisqarishi nuqtalari belgilab olinadi.

1. Eksteryer deganda nimani tushunasiz?
2. Bino eksteryeri dizaynini yaratishda nimalarga ahamiyat qaratish lozim?
3. Bino eksteryerining an’anaviy va zamonaviy usullari deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ravishda bino eksteryeri kompozitsiyasiga oid eskiz variantlarini ishlash.

20-mavzu

ARXITEKTURA MUHITIDA GRAFFITI KOMPOZITSIYASI

Strit art (inglizcha “street art” – “ko‘cha san’ati”) devoriy rasmlar, jamoat joylari va boshqa turli xil obyektlardagi tasvirlar, graffiti, ko‘cha installyatsiyalari, stikerlar, posterlar, shuningdek, murallarni o‘z ichiga oladi.

Graffiti (italyancha “graffito” – “tirnalgan”) – devor yuzasiga bo‘yoqlar yordamida chizilgan, tirnalgan rasm yoki matndan iborat devoriy tasvir. Graffiti asosan shahar muhitida qo‘llanadigan san’at turi hisoblanadi.

Birinchi graffiti san’ati namunalari antik davr me’moriy yodgorliklari va amaliy san’at buyumlarida topilgan. Ularda satirik xarakterdagi yozuvlar, karikatura tasvirlari ifodalangan. Qadimgi rimliklar graffitilarni devor yuzalari hamda haykaltaroshlik namunalariga ishlaganlar. Qadimgi graffitilar mohiyati jihatidan zamonaviy graffitilardan tubdan farq qilgan. Ularda asosan siyosiy ma’lumotlar, e’lonlar o‘rin olgan.

Zamonaviy graffiti san’atining bir nechta turlari, uslublari va yo‘nalishlari mavjud. Ulardan asosiylari “Writing”, “Clean Advertising”, “Tagging” deb nomlanadi.

Writing graffiti san’atining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unda graffiti yaratish texnikasi, uslubi cheklanmagan. Rassom o‘ziga ma’qul bo‘lgan uslubda ishlashi, turli materiallardan foydalanishi mumkin. Masalan, aerozolli bo‘yoqlar, devoriy markerlar, tayyor trafaretlar, mo‘yqalam va h.k.



91-rasm. **Abdurahmon (Inkuzart).** O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdurayim Abduvahobov xotirasiga bag‘ishlangan mural

Mazkur uslubda bajarilgan ish **sketch** deb ataladi va u oldindan qog‘ozga ishlangan bo‘lishi ham mumkin.

Clean Advertising – graffiti san'atining nisbatan yangi yo'nalishi, u asosan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Graffitining bu turida biror-bir korxona mahsuloti tashviqotiga qaratilgan reklama kompozitsiyasi arxitektura inshootlari devorida tasvirlanadi.



92-rasm. "Coca-Cola" kompaniyasi mahsulotining graffiti kompozitsiyasi

Tagging – graffitining ushbu turida ko'p hollarda kalligrafiya va turli yozuv uslublaridan foydalangan holda matnli kompozitsiya yaratiladi.



93-rasm. Shriftli garaffiti kompozitsiyasi





3D graffiti – mazkur uslubda yaratilgan graffiti tasvirlari o‘ziga xos bajarish texnikasi tufayli hajmli ko‘rinadi. Shu kabi optik illyuziyaga ega kompozitsiyalar nafaqat devor, balki asfalt yuzalariga ham ishlanadi.

Ko‘cha san’atida graffiti asarlari bilan bir qatorda murallarni ham uchratish mumkin. Graffiti va muralning farqli jihati, mural (lotincha “murus” – “devor”) juda katta hajmdagi bino devorlariga ishlanadi.




94-rasm.
Hasan Maicheyev.
“Do‘stlik” murali


SAKINA MUHAMEDJANOVA

GRAFFITI USULIDA DEVORIY KOMPOZITSIYA ISHLASH BOSQICHLARI


1




2




3



4



5




1. Strit art qanday san’at turi, uning qaysi turlarini bilasiz?
2. “Graffito” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
3. Graffiti va mural bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Mahallangizdagi estetik jihatdan e’tiborsiz bo‘lgan devor yuzasiga “Do‘stlik”, “Ona yurtim”, “Baxtli bolalik” mavzularida graffiti tasvirlari uchun kompozitsiya yarating.

Misrda graffiti usulida ishlangan qadimiy tasvirlar saqlanib qolgan.

NAZORAT ISHI
“SPORT MUSOBAQALARI” MAVZUSIDA DEVORIY TASVIR – GRAFFITI UCHUN KOMPOZITSIYA ISHLASH




95-rasm. “Sport” mavzusida dekorativ kompozitsiya

21-mavzu

“ORZUMDAGI SHAHAR” MAVZUSIDA ME’MORIY KOMPOZITSIYA ISHLASH

Inson hamisha nimalarnidir orzu qilib yashaydi. Bu orzular uni yangilikka intilishga undaydi. Bu istak, birinchi navbatda, yashash sharoitimizda o‘z aksini topadi. Shu tariqa har xil loyihalar yaratilib, orzu-istaklarimizni tasvirlashga intilamiz. Bu intilishlar natijasida yurtimiz yangicha qiyofa kasb etib bormoqda. Bunda, albatta, yangi loyihalar ijodkorlari – me’morlar, dizaynerlar, rassomlar, amaliy san’at ustalari va quruvchilar ijodiy mehnatining o‘z o‘rni bor. Milliy me’moriy an’analar asosida qurilgan binolarga Toshkent shahridagi machitlar, Islom sivilizatsiyasi markazi *(96-rasm)* kabi inshootlarni kiritish mumkin.

Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda sharqona an’analar asosida qurilgan qadimiy me’moriy obidalarda gumbaz, minora, peshtoq, ravoq kabi qismlar bo‘lgan. Qadimiy me’morchilikda eshik va derazalar, taxmonlar ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Bunday elementlardan zamonaviy me’morchilikda ham foydalanib kelinmoqda.



96-rasm. Islom sivilizatsiyasi markazi. Maket

Me’morchilikning rivojlanishida milliy an’analardan tashqari dunyo arxitekturasida kuzatilayotgan yangiliklar ham muhim rol o‘ynaydi. Yaqin yillarda bunyod etilgan “Humo arena” *(98-rasm),* “Bunyodkor”, “O‘zbekiston” sport arenalari, Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ va milliy kutubxona, “International”, “Hyatt Regency” kabi mehmonxonalar, O‘zbekiston Milliy banki, banklar assotsiatsiyasi *(97-rasm)* binolari zamonaviy shahrimiz ko‘rinishining o‘ziga xos me’moriy bezagidir. Shuningdek, viloyatlarda ham bir qator zamonaviy inshootlar bunyod etilmoqda.


“Orzumdagi shahar” mavzusida me’moriy kompozitsiya ishlashga kirishishdan oldin shaharning umumiy ko‘rinishi, undagi binolarning tuzilishi, ayniqsa, perspektiv qisqarishlarni belgilab olish kerak. Perspektiv qisqarishda bino, yo‘l, daraxtlar, yo‘ldagi odamlar, avtomobillar uzoqlashgan sari kichrayib borishini yodda tutish lozim. Mavzu bo‘yicha kompozitsiya ishlashda quyidagilarga e’tibor qaratish muhim: binoning qanday maqsadda foydalanishga mo‘ljallangani, ko‘chada qanday ko‘rinishdagi inshootlar bo‘lishi, ko‘cha va uning atrofida qanday qo‘shimcha obyektlar mavjudligi va shu kabilar.




97-rasm. Banklar assotsiatsiyasi (chapda) hamda O‘zbekiston Milliy banki binolari



98-rasm. “Humo arena” universal sport saroyi



99-rasm. “Orzumdagi shahar” mavzusida kompozitsiya. Variant




100-rasm. “Orzumdagi shahar” mavzusida kompozitsiya. Variant

SAKINA MUHAMEDJANOVA


“ORZUMDAGI SHAHAR” MAVZUSIDA ZAMONAVIY ME’MORIY KOMPOZITSIYA ISHLASH BOSQICHLARI







4


5




6


7

8



YAKOV CHERNIXOV
ZAMONAVIY SHAHAR
BINOLARI LOYIHASI ESKIZLARI



22-mavzu FOTOGRAFIYADA KOMPOZITSIYA

Fotografiya san’ati fotograf-rassomning ijodiy qarashlarini aks ettiruvchi, fotosurat yaratish texnologiyasiga asoslangan san’at turi hisoblanadi.

Fotografiya san’atining bir nechta janrlari mavjud. Ular rasmga tushirilayotgan predmet yoki obyekt mohiyatidan kelib chiqqan holda manzara, portret yoki turli xil vaziyat, kundalik hayot sahnalari kabi janrlarga ajratiladi. Fotografiyaning barcha janrlarida tasviriy san’atning kompozitsiya qoidalariga, jumladan, tasvir yaratishning vizual vositalari tizimi sifatida kompozitsiya, perspektiva, tasvir tonalligi va yorug‘lik qoidalariga amal qilinadi.

Fotografiya san’atida ham kompozitsiya qurishning o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish talab etiladi. Masalan, suratga olishdan oldin obyektlarni kompozitsion muvozanatini saqlagan holda kadrga to‘g‘ri joylashtirish (kompanovka), vertikal, gorizontal, diagonal chiziqlarga asosan kadrni qurish fototasvirning ta’sirchanligini oshiradi.

Kompanovka suratga olishning birinchi bosqichi bo‘lib, kadrda figuralarni bir-biriga nisbatan, kadr markaziga nisbatan to‘g‘ri joylashtirishni anglatadi *(101-rasm).*




101-rasm. To‘g‘ri kompanovka



102-rasm. Noto‘g‘ri kompanovka




103-rasm. Vertikal chiziqlar mustahkam barqarorlik hissini uyg‘otadi




104-rasm. Gorizontal chiziqlar tinchlik, makon, kenglikni ifodalaydi



105-rasm. Fotografiyada portret. O‘zbekiston xalq artisti Hikmat Latipov portreti








106-rasm. Fotografiyada diagonal elementlar

Diagonal chiziqlar – pastga yoki yuqoriga harakat dinamikasi fotografiyada ifodali kadr olishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Qiziqarli syujet tanlash

Tabiatning har qanday qiziqarli holati syujetga aylanishi mumkin. Masalan, hayvonot olamidagi munosabatlar, tabiat hodisalari, yomg‘ir, tuman, chaqmoq, bolalar ishtirokidagi qiziqarli sahnalar.



107-rasm. **Zilola Sulaymonova.** Fotoetyud

Yorug‘lik va tus, yo‘naltirilgan yorug‘lik – obyektga yoritkichlar orqali yorug‘lik, soyalar va ba’zi hollarda yarqirash effektini berish.



108-rasm.
Fotografiyada yorug‘lik va tus munosabatlarining ifodalanishi

Tarqalgan yorug‘lik – obyektning barcha sirtlarini bir xilda va teng ravishda yoritadigan yorug‘lik.

Uy sharoitida suratga olish uchun eng maqbul va oddiy yorug‘lik manbai derazadan tushadigan yorug‘likdir.



109-rasm. Fotoetyud

Tus – tasvirdagi ranglarning och-to‘qligi, to‘yinganligini anglatuvchi tushuncha. Tasvirning tonalligi undagi och-to‘q maydonlarning nisbati bilan baholanadi.





110-rasm. **Shahnoza Sadirova.** Fotografiyada rang tusining ifodaviyligi

Perspektiva. Fotografiyada perspektivaning bir nechta turi qo‘llanadi. Ulardan eng asosiysi – **chiziqli perspektiva**. Perspektivaning mazkur turida obyektlar kuzatuvchidan uzoqlashgani sari ularning o‘lchami ham o‘zgarib boradi. Buni kadrdan uzoqlashib borayotgan yo‘l misolida ko‘rishingiz mumkin.



111-rasm. Fotografiyada perspektiva

Fotosuratning rangliligi tasvirning ko‘rinishiga, harakatga, pozaga, shuningdek, uning alohida elementlari dinamikasiga xos bo‘lgan ma’noni idrok etishni biroz sekinlashtiradi. Monoxrom (oq-qora) variantda esa yuz shakli, xususiyatlari aniqroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu fotosuratda taqdim etilgan tasvirni ancha yaxshi “o‘qish” imkonini beradi.





112-rasm. **Shahnoza Sadirova.** Fotografiyada rangning ifodaviyligi

Fotoetyud – fotografiya vositalari yordamida bajarilgan etyud.

1. Fotografiya san’atining qanday janrlarini bilasiz?
2. Fotografiya san’atining tasviriy vositalari nimalardan iborat?
3. Ifodali kadr olishning asosiy shartlari qanday?

Smartfon fotokamerasi yordamida “Mening do‘stim”, “Kundalik hayotimdan bir lavha”, “Mening mahallam” mavzularida fotoetyud suratga oling. Suratga olishda o‘rgangan qonun-qoidalaringizni qo‘llang.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Tasviriy san’at

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik

Rassom *Umid Sulaymonov*
Muharrir *Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Orifjon Madvaliyev*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 15.06.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 14,88. Nashriyot-hisob tabog‘i 11,22.
Adadi ____ nusxa. Buyurtma № ___.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.